

- Arxiv.uz-X-XII asrlar adabiyoti – Arab tili va adabiyotining mintaqaviy ta'siri haqidagi materiallar.

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Farg'ona davlat universiteti [ORCID ID: 0009-0003-7101-4338](https://orcid.org/0009-0003-7101-4338),
e-mail: aliyevasarvinoz789@gmail.com



**SAID AHMAD HIKOYALARIDA ANTROPONIMLARNING PRAGMATIK
TAHLILI**

<https://zenodo.org/records/19840397>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalq yozuvchisi Said Ahmad hikoyalarida qo'llangan antroponimlarning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Kirish qismida antroponim tushunchasi va uning badiiy matndagi funksional vazifalari yoritiladi. Adabiyotlar tahlili va metodologiya qismida onomastika hamda pragmalingvistika yo'nalishidagi ilmiy qarashlarga murojaat qilinadi. Tahlil va natijalar qismida yozuvchining ayrim hikoyalaridagi shaxs nomlarining xarakter yaratish, ijtimoiy muhitni ifodalash, kinoya va satirik effekt hosil qilishdagi o'rni ochib beriladi. Maqola yakunida antroponimlarning badiiy-estetik va kommunikativ vazifalari yuzasidan xulosalar beriladi.

Kalit so'z va iboralar: antroponim, pragmatika, badiiy matn, xarakter, ism semantikasi, nutq vaziyati, konnotatsiya

SAID AHMAD STORIES: PRAGMATIC ANALYSIS OF ANTHROPNYMS

Annotation: The article analyzes the pragmatic features of anthroponyms used in the stories of the Uzbek writer Said Ahmad. The introduction explains the concept of anthroponym and its functional role in literary text. The literature review and methodology refer to scientific views in onomastics and pragmalinguistics. The analysis section reveals the role of personal names in character creation, representation of social environment, irony and satirical effect. The conclusions summarize the artistic-aesthetic and communicative functions of anthroponyms in the writer's stories.

Key words: anthroponym, pragmatics, literary text, character, semantics of name, communicative situation, connotation.

**ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНТРОПОНИМОВ В РАССКАЗАХ
САИДА АХМАДА**

Аннотация: В статье анализируются прагматические особенности антропонимов, использованных в рассказах узбекского народного писателя Саида Ахмада. Во введении раскрывается понятие антропонима и его функциональная роль в художественном тексте. В разделе обзора литературы и методологии рассматриваются научные взгляды в области ономастики и прагмалингвистики. В аналитической части

освещается роль личных имён в создании характера, отражении социальной среды, формировании иронического и сатирического эффекта в отдельных рассказах писателя. В заключении формулируются выводы о художественно-эстетических и коммуникативных функциях антропонимов.

Ключевые слова: антропоним, прагматика, художественный текст, характер, семантика имени, речевая ситуация, коннотация, рассказы Саида Ахмада.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda onomastika, xususan, antroponimika alohida ilmiy yoʻnalish sifatida shakllangan. Antroponimlar – shaxs nomlari boʻlib, ular nafaqat nominativ, balki semantik, stilistik va pragmatik yuklama ham tashiydi. Badiiy matnda esa ism oddiy atama emas, balki muallifning estetik niyati, ijtimoiy pozitsiyasi va xarakter yaratish uslubini ifodalovchi vositadir.

Said Ahmad hikoyalarida qoʻllangan antroponimlar oʻziga xos semantik va pragmatik xususiyatlarga ega. Yozuvchi shaxs nomlari orqali qahramonning xarakterini ochadi, uning ijtimoiy qatlamini belgilaydi, baʼzan esa satirik yoki kinoyaviy maʼno yuklaydi. Shu jihatdan antroponimlar yozuvchi badiiy-estetik idealini ifodalovchi muhim komponent sifatida namoyon boʻladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tilshunoslikda antroponimlar masalasi onomastika doirasida keng oʻrganilgan boʻlib, shaxs nomlarining kelib chiqishi, semantik tarkibi, funksional xususiyatlari va ijtimoiy-madaniy yuklamasi yuzasidan koʻplab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, oʻzbek onomastikasining nazariy asoslari H. Hasanovning “Oʻzbek ismlari” asarida atroflicha yoritilib, unda antroponimlarning etimologiyasi, semantik guruhlari va tarixiy qatlamlari tahlil qilingan [3, 34–36]. Muallif shaxs nomi millatning tarixiy xotirasi va mentalitetini aks ettiruvchi til birligi ekanini taʼkidlaydi.

Shuningdek, E. Begmatovning “Oʻzbek onomastikasi” nomli tadqiqotida antroponimlarning nominativ va konnotativ funksiyalari ajratib koʻrsatiladi. Olimning fikricha, ism nafaqat atash vazifasini bajaradi, balki nutq jarayonida qoʻshimcha baholovchi va emotsional maʼno kasb etadi [2, 78–80]. Bu qarash badiiy matn tahlilida ayniqsa muhimdir, chunki adabiy asarda ism obrazning ichki mohiyatini ochishda faol vosita sifatida ishlaydi.

Pragmalingvistika nuqtayi nazaridan qaralganda, shaxs nomi kommunikativ aktning tarkibiy elementi hisoblanadi. N. Mahmudov “Til va nutq madaniyati” asarida ismning nutq vaziyatidagi rolini izohlar ekan, uning adresat ongida maʼlum assotsiativ maydon hosil qilishini qayd etadi [4, 112–114]. Demak, ism qoʻllangan muhitga qarab semantik doirasini kengaytiradi yoki toraytiradi.

Badiiy matn semantikasi masalasini oʻrgangan B. Yoʻldoshevning “Badiiy matn lingvopoetikasi” asarida esa obraz yaratishda til birliklarining, jumladan, antroponimlarning stilistik imkoniyatlari tahlil qilinadi [10, 95–97]. Muallifning taʼkidlashicha, yozuvchi tomonidan tanlangan ism koʻpincha yashirin badiiy niyatni ifodalaydi va oʻquvchini maʼlum estetik xulosaga yoʻnaltiradi.

Rus tilshunosligida ham antroponimlarning pragmatik jihatlari tadqiq etilgan. V. N. Toporov va A. V. Superanskaya onomastik birliklarning ijtimoiy va madaniy kontekst bilan

uzviy bog'liqligini asoslab berganlar [9, 41–44]. A. V. Superanskayaning fikricha, badiiy asardagi ism “semantik signal” vazifasini bajarib, o'quvchi ongida oldindan ma'lum stereotiplarni uyg'otadi.

Pragmatik yondashuv asoschisi sifatida e'tirof etiladigan Ch. Morris belgilar nazariyasida til birliklarining uch qirrasini (semantika, sintaktika va pragmatika) ajratadi [5, 56–58]. Antroponim aynan pragmatik qatlamda o'zining to'liq funksional imkoniyatini namoyon etadi, chunki u nutq subyekti va adresat o'rtasidagi munosabatni belgilaydi.

Shuningdek, J. Ostinning nutq aktlari nazariyasiga ko'ra, ism qo'llanishi ham ma'lum illokutiv kuchga ega bo'lishi mumkin [1, 73–75]. Masalan, qahramonni to'liq ism-sharifi bilan atash rasmiylik va masofa bildirsa, qisqartma yoki erkalash shakli yaqinlik va hissiy munosabatni ifodalaydi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlardan kelib chiqib, mazkur maqolada Said Ahmad hikoyalaridagi antroponimlar quyidagi metodologik tamoyillar asosida tahlil qilinadi:

1. **Semantik tahlil** – ismning lug'aviy ma'nosi va uning obraz xarakteriga mos yoki ziddiyatli jihatlari aniqlanadi.
2. **Pragmatik tahlil** – ismning nutq vaziyatida qanday qo'shimcha konnotativ ma'no kasb etishi va o'quvchi ongida qanday assotsiativ maydon hosil qilishi o'rganiladi.
3. **Lingvopoetik tahlil** – antroponimning xarakter yaratish, konfliktni kuchaytirish va estetik effekt hosil qilishdagi roli yoritiladi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, antroponimlar masalasi onomastika, pragmalingvistika va lingvopoetika kesishgan nuqtada tadqiq etilishi lozim. Said Ahmad hikoyalaridagi ism tanlash strategiyasi ham aynan shu ko'p qatlamli yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Natija va muhokama

Said Ahmadning “Bahor qizlari” hikoyasida antroponimlar oddiy nominativ birlik sifatida emas, balki kuchli pragmatik yuklama tashuvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Matn tahlili shuni ko'rsatadiki, yozuvchi ism tanlash orqali qahramon xarakterini ochadi, ijtimoiy qarashlarni fosh etadi hamda satirik-estetik effekt hosil qiladi.

Hikoyaning markaziy qahramoni *Shahlo Qodirova* ism-sharifi bilan matnga kirib keladi [6]. “Shahlo” ismi odatda go'zallik, latofat, noziklik semalarini anglatadi. Biroq asarda bu ism mexanizatsiya bo'yicha rais o'rinbosari, traktor va buldozer boshqaruvchi, erkaklar bilan tengma-teng bahslashuvchi ayol obraziga nisbat beriladi. Masalan, “Shahlo traktorni sada tagiga opkelib, undan sakrab tushdi” [6] jumlasini orqali nozik ism bilan og'ir texnika boshqaruvi o'rtasida semantik ziddiyat yuzaga keladi. Bu ziddiyat pragmatik jihatdan qahramonning ichki qudratini ochib beradi va o'quvchida hayrat uyg'otadi. Demak, ism va ijtimoiy rol o'rtasidagi kontrast obrazni kuchaytiruvchi vositaga aylangan.

Familiya “Qodirova” ham bejiz tanlanmagan. “Qodir” so'zi kuch, iroda, imkoniyat semalarini bildiradi. Shahlo obrazi ham aynan qat'iyatli, o'z pozitsiyasida sobit shaxs sifatida tasvirlanadi. Masalan, raisning mashinasiga boshqa texnikaning motorini o'rnatilganini fosh etib, “*Bu motorni 'XVS' terim mashinasidan olib qo'yilgan ekan. Joyiga qo'yamiz*” [6] deya qat'iy qaror bildirishi uning “qodirlik” semasini pragmatik jihatdan aktualizatsiya qiladi. Shunday qilib, ism va xarakter o'rtasida semantik uyg'unlik yuzaga keladi.

Hikoyadagi Rahmon aka antroponimi esa patriarxal ong va an'anaviy qarash timsolidir. "Rahmon" ismi rahmdil, mehribon ma'nolarini anglatadi. Matnda u qishloq mentalitetini ifodalovchi, yangilikka ehtiyotkorlik bilan yondashuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi: "*Bu hurpaygan sochlarni odamga o'xshab o'rib ol*" [6]. Bu yerda ismning axloqiy-semantik maydoni bilan qahramonning ijtimoiy pozitsiyasi o'rtasida moslik kuzatiladi. U keskin salbiy emas, balki eski qarash tarafdori sifatida berilgan.

"Sodiq" ismi esa ironik pragmatik vazifa bajaradi. "Sodiq" vafodor, sadoqatli degan ma'noni bildiradi. Biroq matnda u traktorini qarovsiz qoldirgan, mashinasini vaqtida ta'mirlamagan mexanizator sifatida tasvirlanadi: "*Motor qurum orasida qolib ketibdi-ku*" [6]. Bu yerda ism va xatti-harakat o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Natijada satirik effekt hosil bo'ladi. Demak, antroponim ironik vosita sifatida ishlatilgan.

"Nafisa" ismi esa estetik qadriyatni ifodalaydi. "Nafisa" nafis, go'zal ma'nosini bildiradi. Shahlo erkaklarning ikkiyuzlamachiligini ochish jarayonida uni misol qilib ko'rsatadi: "*Mana, xotiningiz. Qaysi bir jonondan kam?*" [6]. Bu epizodda ism semantikasi aktualizatsiya qilinib, go'zallikning o'z uyida qadrlanmasligi muammosi ko'tariladi. Pragmatik jihatdan bu hol erkaklar ongidagi stereotiplarni fosh etish vazifasini bajaradi.

E'tiborli jihati shundaki, hikoyada ayol obrazlari aniq ism bilan individuallashtiriladi (Shahlo, Nafisa), erkaklar esa ko'pincha kasb yoki tashqi belgilar orqali ataladi ("*shop mo'ylov buldozerchi*", "*mexanizator*"). Bu hol antroponimlarning gender-pragmatik funksiyasini ko'rsatadi. Ayol obrazlari shaxs sifatida ajratib ko'rsatiladi, erkaklar esa tipik ijtimoiy qatlam vakillari darajasida beriladi.

Hikoya yakunida raisning "*Qishlog'imizga bu yil bir emas ikki bahor keldi*" [6] degan gapi Shahlo obrazini metaforik jihatdan "bahor" bilan tenglashtiradi. Bu yerda antroponim to'g'ridan-to'g'ri emas, balki obrazning ma'naviy-estetik yuklamasi orqali kengayadi. Shahlo yangilanish, go'zallik va ijtimoiy uyg'onish ramziga aylanadi.

Said Ahmadning "**Kechikkan sevgi**" hikoyasida antroponimlar badiiy matnning semantik va pragmatik tizimida muhim o'rin egallaydi. Asarda ism oddiy nominativ birlik sifatida emas, balki obrazning ichki dunyosi, ruhiy iztirobi va ijtimoiy taqdirini ochib beruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Hikoya matni tahlili shuni ko'rsatadiki, yozuvchi antroponimlar orqali muhabbatning kechikishi, insoniy iztirob va hayotiy mas'uliyat o'rtasidagi ziddiyatni chuqur ifodalagan.

Hikoyaning asosiy qahramonlari Bashorat va Ismoiljon. Matnda "*Bashoratning arizasi*" tarzida ism ilk bor rasmiy kontekstda qo'llanadi [7, 1–2]. Bu joydayoq ismning semantik qatlamiga e'tibor qaratish mumkin. "Bashorat" so'zi lug'aviy jihatdan "xushxabar", "umid", "yaxshi alomat" ma'nolarini anglatadi. Biroq hikoyada Bashorat obrazi iztirob, kutilmagan alam va kechikkan muhabbat timsoli sifatida tasvirlanadi. Demak, ismning ijobiy semantikasi bilan qahramon ruhiy holati o'rtasida ichki ziddiyat mavjud. Bu ziddiyat pragmatik jihatdan o'quvchida hamdardlik va achinish tuyg'usini uyg'otadi. Masalan, "*Izzat-nafsi koyigan qiz shu shovqin-suronga to'la joydan ketyapti*" [7, 2–3] jumlasida Bashoratning ichki og'rig'i kuchli hissiy fon bilan beriladi. Bu yerda ism obrazning iztirobli taqdiriga qarama-qarshi semantik fon hosil qiladi.

Bashoratning ismi hikoya davomida ko‘proq murojaat shaklida: “*Bashorat!*” tarzida yangraydi [7, 4]. Ayniqsa, Ismoiljon uni ism bilan chaqirgan sahna dramatik kulminatsion nuqta vazifasini bajaradi. Ismning ovoz orqali yangrashni qahramon qalbidagi muzlarni erituvchi signalga aylanadi. Bu yerda antroponim kommunikativ aktning markaziga chiqadi va hissiy yuklama ortadi. Ismning talaffuzi muhabbatning ochilishi bilan bog‘lanadi.

Ikkinchi markaziy antroponim Ismoiljon. “Ismoil” diniy ildizga ega ism bo‘lib, sabr, itoat va qurbonlik timsoli sifatida talqin qilinadi. “-jon” qo‘shimchasi esa o‘zbek tilida yaqinlik, mehr ifodasidir. Matnda Ismoiljon bosh injener sifatida rasmiy mavqega ega shaxs sifatida tanishtiriladi [7, 1]. Biroq hikoya rivojida uning ichki olami ochiladi: bolalikdagi yetimlik, ota-onaning mehridan mahrumlik, sud jarayonlari, oilaviy mas’uliyat [7, 6–7]. Shu jihatdan Ismoiljon ismi semantik jihatdan sabr-toqat va ichki chidam timsoli bilan uyg‘unlashadi.

Qizning unga nisbatan “*yog‘ochsan, toshsan, kesaksan*” [1, 4] deya murojaat qilishi esa ismning “-jon” affiksidagi iliqlik semasi bilan keskin kontrast hosil qiladi. Tashqi ko‘rinishda sovuqqon, his-tuyg‘usiz ko‘ringan bu qahramon aslida og‘ir hayot sinovlari tufayli hissiyotlarini ichga yutib yashayotgan inson sifatida gavdalanadi. Demak, antroponim obrazning ichki qatlamini ochishga xizmat qiladi. Ismoiljonning o‘tmishi haqida hikoya qilgan joylari (“*Sakkiz yasharimda dadam bilan ayam ajralib ketishdi...*” [7, 7]) uning ismiga yuklangan sabr va chidam ma’nosini pragmatik jihatdan asoslaydi.

Hikoyada e’tiborli jihat shundaki, boshqa shaxslar (sekretar, shofyor, dadam, ayam) aniq ism bilan emas, ijtimoiy roli orqali beriladi. Bu esa markaziy dramatik kuch aynan Bashorat va Ismoiljon atrofida jamlanganini ko‘rsatadi. Antroponimlarning individuallashuvi asosiy konflikt markazini belgilaydi. Ikkala ism matnda takror-takror yangraydi va o‘zaro dialoglarda emotsional kuchni oshiradi.

Bashoratning “*Men sevaman... Men sherik bo‘laman!*” [1, 8] deya qat’iy bayon etishi uning ismidagi “umid” semasini yana bir bor jonlantiradi. Hikoya yakunida tongning yorishishi (“*Yeru ko‘kka nur purkab otayotgan shu tong...*” [7, 9]) Bashorat ismidagi bashorat ma’nosini ramziy tarzda mustahkamlaydi. Tong yangi boshlanish, umid timsoli. Demak, ismning semantik maydoni asar kompozitsiyasi bilan uyg‘unlashadi.

Said Ahmadning “**Sarob**” hikoyasida antroponimlar badiiy matnning g‘oyaviy markaziga aylangan. Asarda ism shunchaki shaxsni atash vositasi emas, balki mafkuraviy aldov, xiyonat, vijdon va qismat tushunchalarini ochuvchi pragmatik mexanizm sifatida ishlaydi. Hikoyada ayniqsa **Kimsanboy, Olimjon domla, Mansurov, Yolqinov** kabi antroponimlar orqali shaxsiy fojia bilan siyosiy tizim o‘rtasidagi ziddiyat chuqur ochib beriladi.

1. Kimsanboy antroponimining pragmatik talqini

“Kimsanboy” ismi o‘zbek tilida so‘zma-so‘z talqin etilganda “Kimsan?” (kim san?) savoliga ishora qiladi. Bu ismning semantik tarkibida identifikatsiya, ya’ni “sen kimsan?” degan savol yashiringan. Hikoya davomida bu savol qahramonning butun hayotiy yo‘liga tatbiq etiladi.

Kimsanboy dastlab qahramon pioner sifatida tasvirlanadi. Gazetalarda surati chiqadi, “*Pioner! Qahramon Kimsanboy Olimjonovga salyut berib o‘tishni unutm!*” degan shiorlar bilan ulug‘lanadi. Bu yerda antroponim ideologik ramzga aylanadi: ism shaxs emas, tizim yaratgan “namuna”.

Keyinchalik u otasiga qarshi ko‘rsatma berib, GPU xodimi Mansurov bilan tilxat yozadi [8]. Shu nuqtadan boshlab ismning semantik markazi o‘zgaradi: “*qahramon*” degan talqin “*xoin*” tushunchasiga almashadi. Demak, antroponimning pragmatik funksiyasi vaqt o‘tishi bilan keskin transformatsiyaga uchraydi.

Hikoyaning lager qismida Kimsanboy tanib bo‘lmas darajada o‘zgaradi. Uning ismi yoniga endi mahbus raqami yoziladi: “YeYe3781”. Bu yerda antroponim va raqam qarama-qarshi qo‘yiladi. Raqam shaxsni yo‘qotish, ism esa shaxsiyat qoldig‘idir. Ammo Kimsanboy o‘zligini allaqachon yo‘qotgan. Ism va shaxs o‘rtasidagi uyg‘unlik uzilgan.

2. Familiya almashuvi: Olimjonov → Yolqinov

Kimsanboy frontga ketar ekan, “*Bugundan boshlab familiyam Olimjonov emas, Yolqinov bo‘ldi*” deya e‘lon qiladi [8]. Bu epizod pragmatik jihatdan nihoyatda muhim. “Olimjonov” otaning ismidan kelib chiqqan familiya, ya‘ni nasab, ildiz hisoblanadi. “Yolqinov” esa “yolqin” (olov, alanganalish) semasiga ega. Bu o‘zgarish shaxsning o‘z otasidan, o‘z tarixidan uzilishini anglatadi.

Familiya o‘zgartirish bu yerda nafaqat tashqi, balki ichki identitetning ham uzilishi sifatida namoyon bo‘ladi. Qahramon otasining nomini rad etadi, ammo keyinchalik lagerda yana “Yolqinov” familiyasi bilan mahbus sifatida paydo bo‘ladi. Demak, familiya almashuvi uni qutqarmaydi; aksincha, bu harakat uning ichki bo‘shlig‘ini yanada chuqurlashtiradi.

3. Olimjon domla: ilm va fojia timsoli

“Olimjon” ismi “olim” (ilimli) so‘zidan kelib chiqqan. Hikoyada u tarix bilimdoni, qo‘lyozmalarni asrab-avaylaydigan ziyoli sifatida tasvirlanadi. Ism va xarakter o‘rtasida to‘liq semantik uyg‘unlik mavjud.

Ammo shu “olim” inson o‘z o‘g‘lining xiyonati tufayli qamaladi. Yuzlashtirish sahnasida u o‘g‘liga “*Iloyo, juvonmarg bo‘l!*” deya qarq‘ish qiladi. Bu yerda otaning so‘zi qahramonning keyingi taqdiriga prognoz sifatida ishlaydi. Hikoya boshidagi “Ota qarq‘ishi misoli o‘q” degan epigraf mazmunan aynan shu voqeada ro‘yobga chiqadi.

Lager sahnasida Olimjon domla o‘g‘lini tanisa-da, o‘g‘li uni tanimaydi. Bu epizod antroponimning ruhiy uzilishini ko‘rsatadi: biologik aloqa bor, lekin ma‘naviy aloqa uzilgan.

Mansurov: ideologik apparat vakili

“Mansurov” familiyasi “mansur” (g‘olib) so‘zidan kelib chiqqan. U GPU xodimi sifatida mafkuraviy “g‘alaba”ni ta‘minlovchi shaxsdir. U Kimsanboyni manipulyatsiya qiladi, siyosiy tus berilgan ma‘lumotlar yozishga majbur qiladi. Bu yerda antroponim ijobiy semantik asosga ega bo‘lsa-da, amalda salbiy obrazni ifodalaydi.

4. Antroponim va ramziy yakun

Hikoya yakunida Kimsanboyning ko‘ksiga ishlangan Stalin surati bilan o‘limi tasvirlanadi. Ota janoza o‘qishdan bosh tortadi: “*Ko‘ksida kofirning surati bor*” deydi. Bu yerda antroponim Kimsanboy diniy va axloqiy mezonlar doirasida baholanadi.

Xulosa

Said Ahmadning uch hikoyasi asosida olib borilgan pragmatik tahlil shuni ko'rsatadiki, yozuvchi antroponimlardan badiiy mazmuni chuqurlashtiruvchi va g'oyani ochib beruvchi muhim til birligi sifatida foydalanadi. Ism asarda faqat shaxsni belgilab qo'ymaydi, balki obrazning ichki dunyosi, ruhiy holati, ijtimoiy mavqei hamda muallifning unga nisbatan bahosini ham ifodalaydi. Shu jihatdan antroponim matnning semantik markaziga aylanadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ismning lug'aviy ma'nosi ko'pincha qahramon xarakteri bilan uyg'un yoki ziddiyatli munosabatga kirishadi. Ba'zi hollarda ism obraz mohiyatini mustahkamlasa, boshqa hollarda ironik kontrast hosil qiladi. Ana shu moslik yoki nomuvofiqlik o'quvchida qo'shimcha baholash mexanizmini ishga tushiradi va matnning estetik ta'sirini kuchaytiradi. Demak, antroponim badiiy konfliktni chuqurlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, hikoyalarda ismning pragmatik transformatsiyasi kuzatiladi. Voqealar rivoji davomida antroponim dastlabki konnotativ ma'nosini o'zgartirishi, yangi ijtimoiy va ruhiy mazmun kasb etishi mumkin. Bu jarayon qahramonning ichki o'sishi yoki tanazzulini aks ettiradi. Natijada ism va qismat o'rtasida ramziy bog'liqlik yuzaga keladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, antroponimlar nutq vaziyatida emotsional masofa va yaqinlikni belgilaydi. To'liq ism-sharif, familiya, qisqartma yoki erkalash shakllarining qo'llanishi qahramonlar o'rtasidagi munosabat darajasini ochib beradi. Bu esa ismning kommunikativ-pragmatik funksiyasini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, Said Ahmad hikoyalarida antroponimlar ko'p qatlamli lingvopoetik birlik sifatida xizmat qiladi. Ular orqali yozuvchi shaxsiy taqdir, ijtimoiy muhit, ma'naviy qadriyat va ruhiy ziddiyatlarni ifodalaydi. Ism badiiy matnda mazmuni tashuvchi, obrazni individuallashtiruvchi va g'oyaviy yukni mujassamlashtiruvchi faol estetik vositaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Austin J. L. *How to Do Things with Words*. – Oxford: Clarendon Press, 1962.
2. Begmatov E. *O'zbek onomastikasi*. – Toshkent: Fan, 1985.
3. Hasanov H. *O'zbek ismlari*. – Toshkent: Fan, 1966.
4. Mahmudov N. *Til va nutq madaniyati*. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
5. Morris Ch. *Foundations of the Theory of Signs*. – Chicago: University of Chicago Press, 1938.
6. Said Ahmad. *Bahor qizlari* // Said Ahmad. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000.
7. Said Ahmad. *Kechikkan sevgi* // Said Ahmad. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000.
8. Said Ahmad. *Sarob* // Said Ahmad. Tanlangan asarlar. 3-jild. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000.
9. Superanskaya A. V. *Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo*. – Moskva: Nauka, 1973.
10. Yo'ldoshev B. *Badiiy matn lingvopoetikasi*. – Toshkent: Fan, 2008.